

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.04/30.12.2019.FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

SABIROV DILSHOD SHUHRAT O'G'LI

**YALLIG'LANISHGA QARSHI «NETINFLA» VOSITASINING
FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

14.00.17- farmakologiya va klinik farmakologiya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of philosophy dissertation (PhD)

Sabirov Dilshod Shuhrat o'g'li

Yallig'lanishga qarshi «Netinfla» vositasining farmakologik xususiyatlarini
o'rganish.....3

Сабиров Дилшод Шухрат угли

Изучение фармакологических свойств противовоспалительного средства
«Нетинфла».....21


Sabirov Dilshod Shukhrat ugli

Studying the pharmacological properties of the anti-inflammatory remedy
«Netinfla».....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works43



**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.04/30.12.2019.FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

SABIROV DILSHOD SHUHRAT O'G'LI

**YALLIG'LANISHGA QARSHI «NETINFLA» VOSITASINING
FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

14.00.17- farmakologiya va klinik farmakologiya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/Far109 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent pediatriya tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.pharmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Daminova Lola Turgunpulatovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Allayeva Munira Jorakulovna
biologiya fanlari doktori, professor

Islamova Jannat Ikramovna
tibbiyot fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmasevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38; faks: (+99871) 256-45-04; e-mail: info@pharmi.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent farmasevtika instituti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 45-uy. Tel.: (+99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

K.S.Rizayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d.

Y.S.Kariyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, farm.f.d., professor

R.T.Tulyaganov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 1,71 milliarddan ortiq insonda har-xil turdagi yallig‘lanish kasalliklari uchraydi va bugungi kunda ushbu patologiyalarni davolashda 300 milliondan ortiq bemorlar tomonidan nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalar (NYAQV) keng qo‘llaniladi. Ammo ushbu farmakoterapevtik guruh dori vositalari sintetik tabiatga egaligi hamda gistogematik baryerdan oson o‘tishi tufayli bir qator nojo‘ya ta’sirlarni ko‘rsatadi, jumladan gastro-, nefro-, kardio-, gemato - va gepatotoksiklik. Shuning uchun inson organizmiga yumshoq ta’sir ko‘rsatadigan dorivor o‘simliklar asosida yuqori samaradorlikka ega yallig‘lanishga qarshi dori vositalarni ishlab chiqish, ularning farmakologik xususiyatlarini o‘rganish, terapevtik dozalarni aniqlash hamda bezararligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida dorivor o‘simliklarni o‘rganish, ulardan biologik faol moddalarni ajratib olish, tahlil qilish, shuningdek farmakoterapevtik faolligini isbotlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, farmakologik skrining natijalari asosida bir nechta dorivor o‘simliklar yig‘masini ishlab chiqish, uning asosida olingan ajratmaning samaradorligini isbotlash, spetsifik faolligini va bezararligini aniqlash, hamda rasmiy tibbiyotga tatbiq etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda aholi sog‘lig‘ini saqlash, sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, zarur dori vositalar bilan ta’minlash, sintetik va tabiiy xomashyolar asosidagi dori vositalarning samaradorligini farmakologik tadqiqotlar natijalariga asosan isbotlash borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqsadida «Farmastevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta’minlash darajasini 80 foizga yetkazish»¹ kabi dolzarb vazifalar belgilangan. Bu borada, *Glycyrrhiza glabra L.*, *Achillea filipendulina L.*, *Ziziphora pedicellata Pazij et Vved* xomashyolari asosida olingan farmakologik vositasining turli spetsifik faolliklarini, jumladan, yallig‘lanishga qarshi, antipiretik, og‘riq qoldiruvchi ta’sirini, o‘tkir toksikligi hamda kumulyativ xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son «Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022 yil 26 oktyabrdagi PQ-411-son «Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi PF-55-son «2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2022 yil 20 maydagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

«Dorivor o‘simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-139-son farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda *G. glabra*, *A. filipendulina*, *Z. pedicellata* o‘simliklarini farmakologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha K.X. Xodjimatomov, A.K. Xodjimatomov, Sh.A. Yuldasheva, turli qismlaridan biologik faol moddalarni ajratib olish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha Z.Z. Xakimov, Y.M. Musayev, Y.Z. Akramova, X.A. Mirzoxidovlar ilmiy va amaliy natijalarga erishganlar.

Dunyo miqyosida yallig‘lanishga qarshi dorivor o‘simliklarni farmakologik xususiyatlarini xamda ular asosida dori vositalar yaratish bo‘yicha tadqiqotlar J.S. Brooks, S.P. Klink, M.L. Berkley, P.B. Schmidt, A.L. Federico, J.A. Duke, M. Blumenthal, D.S. McGee, S.H. Safe, E.V. Peshanskaya, V.V. Platonov, I.V. Popov, E.V. Tiskaya, V.V. Chulkova, N.A. Shostak va b. tomonidan olib borilganini e‘tirof etish lozim.

Mazkur dissertasiya ishida ilk bor *G. glabra*, *A. filipendulina*, *Z. pedicellata* dorivor o‘simliklaridan tarkib topgan farmakologik vositasini antieksudativ, antiproliferativ, antipiretik, allergik, mahalliy-qitiqluvchi va analgetik faolligi aniqlash bo‘yicha birinchi ilmiy izlanish hisoblanadi.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ilmiy - tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Bolalarda tug‘ma va orttirilgan kasalliklarni diagnostikasi, davolash va profilaktika usullarini takomillashtirish» mavzusida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: *G. glabra*, *A. filipendulina* va *Z. pedicellata* dorivor o‘simliklaridan tarkib topgan «Netinfla» farmakologik vositasini farmakologik xususiyatlarini hamda bezararligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining o‘tkir va nimo‘tkir zaharligini aniqlash;

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining mahalliy-qitiqluvchi va allergen ta’sirini o‘rganish;

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining yallig‘lanishga qarshi faolligini (formalin va gistamin shishi modellarida) aniqlash;

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining yallig‘lanish jarayonining proliferativ bosqichida faolligini o‘rganish;

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining antipiretik va analgetik faolligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida *G. glabra*, *A. filipendulina* va *Z. pedicellata* dorivor o'simliklaridan tarkib topgan yallig'lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasi olingan.

Tadqiqotning predmeti eksperimental laboratoriya hayvonlari (oq sichqonlar, oq kalamushlar, albinos quyonlar)da «Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasining bezaraligini (o'tkir va nimo'tkir zaharligi, mahalliy-qitiqluvchi va allergen ta'siri) va farmakologik faolligini (antieksudativ, antiproliferativ, antipiretik va analgetik faolligini) aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda farmakologik, fiziologik, toksikologik, gistomorfologik, makroskopik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

G. glabra, *A. filipendulina* va *Z. pedicellata* dorivor o'simliklarini turli kompozitsiyalaridan olingan quruq ekstraktlarning farmakologik skriningi natijalari asosida optimal tarkibi aniqlangan;

«Netinfla» farmakologik vositasining yallig'lanishga qarshi faolligi «Formalin» va «Gistamin» shishi hamda «Paxta granulomasi» modellarida aniqlangan va uning samaradorligi nosteroid yallig'lanishga qarshi sintetik preparat «Diklofenak» dan kam emasligi isbotlangan;

«Pirogen issiqlik» modelida ekperimental hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarda «Netinfla» farmakologik vositasi hayvonlarning tana xaroratini pasaytirishi aniqlangan;

«Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasi «Quyruq termal immersiyasi» eksperimental modelida analgetik xususiyatga ega ekanligi isbotlangan;

«Netinfla» farmakologik vositasining R.K. Lim modeli asosida nimo'tkir zaharliligini aniqlash natijalari bo'yicha kumulyativ ta'sirini yo'qligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Netinfla» farmakologik vositasining isitma tushuruvchi va og'riq qoldiruvchi ta'siri analgetik-antipiretik dori vositalar guruhiga mansub «Biomol» preparatidan kam emasligi isbotlangan;

«Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasining allergik xususiyatlari sensibilizatsiya qilingan hayvonlarda «Konyunktival testi» modelida aniqlanib, ushbu vosita darhol va kechiktirilgan turdagi allergik reaksiyalarni chaqirmasligi isbotlandi.

Nimo'tkir zaxarligini aniqlashda o'tkazilgan gistomorfologik tadqiqotlar «Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasining ultserogen ta'sirga ega emasligini ko'rsatgan.

Olingan tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar amaldagi GLP mintaqaviy standarti - «Yaxshi laboratoriya amaliyoti» ISO-9001 talablariga muvofiq o'tkazilganligi, shuningdek, «Eksperimental va ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Evropa Konventsiyasi»ning barcha me'yorlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning natijalarining ilmiy ahamiyati «Netinfla» yallig‘lanishga qarshi farmakologik vositasining farmako-toksikologik xususiyatlari o‘rganilganligi, qiyosiy preparatlari «Diklofenak» va «Biomol»larga nisbatan samaradorligi kam emasligi, shuningdek nojuya ultserogen ta’siri aniqlanmaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tajribalar natijasida bir vaqtning o‘zida yallig‘lanishga qarshi, antipiretik, analgetik ta’sirga ega bo‘lgan yallig‘lanish bilan kechadigan turli kasalliklarda qo‘llashga mo‘ljallangan yangi dorivor substansiyasini ishlab chiqarish va tibbiyot amaliyotida qo‘llashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yallig‘lanishga qarshi «Netinfla» vositasining farmakologik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida «Netinfla» farmakologik vositasining yallig‘lanishga qarshi spetsifik faolligi isbotlangan (Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada mahalliy dorivor o‘simliklar asosida yangi dorivor substansiyani ishlab chiqarish imkonini bergan;

o‘tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida «Netinfla» farmakologik vositasining og‘riq qoldiruvchi, antipiretik spetsifik faolliklari aniqlangan hamda bezararligi (o‘tkir va nimo‘tkir zaharliligi, mahalliy-qitiquvchi, allergik xususiyatlari yo‘qligi) isbotlangan (Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada yuqori samaradorlikka ega va bezarar dorivor substansiyalar assortimentini kengaytirish imkonini bergan;

«Netinfla» farmakologik vositasi uchun o‘tkazilgan farmakologik tadqiqot natijalari dori vositalarini ishlab chiqarish hamda klinik oldi tadqiqotlar o‘tkazuvchi markazlar va laboratoriyalar faoliyatiga tatbiq etildi (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik Kengashining 2024 yil 22 oktyabrdagi 07/98-sonli xulosasi). Natijada farmakologik laboratoriyalar faoliyatini yanada rivojlantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, adabiyotlar sharhi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 103 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talabgorligi, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika taraqqiyotining ustuvor

yoʻnalishiga muvofiqligi asoslangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, ularning bajarilishi, natijalar va nashrlarning aprobasiyasi toʻgʻrisida maʼlumot berilgan, shuningdek dissertatsiyaning tuzilishi toʻgʻrisida maʼlumot berilgan.

«Yalligʻlanish kasalliklari va farmakoterpiya tamoyillari toʻgʻrisida umumiy maʼlumot» dissertatsiyasining birinchi bobida yalligʻlanish kasalliklari muammolariga ilmiy yondashish, yalligʻlanish kasalliklarini davolash uchun asosiy dorilarni qoʻllash tamoyillariga bagʻishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan va «Netinfla» yalligʻlanishga qarshi farmakologik vositasining tarkibiga kiruvchi dorivor oʻsimliklar haqida umumiy maʼlumot berilgan.

«Netinfla» yalligʻlanishga qarshi vositasini tadqiqot materiallari va usullari» dissertatsiyasining ikkinchi bobida «Netinfla» yalligʻlanishga qarshi farmakologik vositasining xavfsizligi va farmakologik faolligini oʻrganish uchun materiallar va usullar mavjud.

«Netinfla» yalligʻlanishga qarshi farmakologik vositasining turli kombinasiyalarini skrining tekshiruv ikkala jinsdagi 180-200 g ogʻirlikdagi 36 ta oq kalamushda panjaning «Gistamin shishi» usuli yordamida oʻrganildi, soʻngra har biri 6 hayvondan iborat guruhlariga boʻlindi.

Buning uchun hayvonlarda oyoq hajmi oldindan oʻlchanildi va yalligʻlanishni qoʻzgʻatishdan bir soat oldin bir marotaba, yalligʻlanishga qarshi farmakologik vositasi «Netinfla» har bir eksperimental guruh uchun maʼlum bir kombinasiya bilan qoʻllanildi. Soʻngra, har bir guruh hayvonlariga, yani kalamushlarning chap orqa oyogʻiga suvli eritma koʻrinishida 0,1% 0,2 ml gistamin eritmasi yuborildi.

Oʻtkir, nimoʻtkir zaharliligini oʻrganish umumiy qabul qilingan usul boʻyicha amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda 18-22 g ogʻirlikdagi 36 ta oq sichqon (har ikkala jinsda), soʻngra har biri 6 ta hayvondan iborat (5 tajriba guruhlari va bir intakt) guruhlariga boʻlingan holda oʻtkazildi.

Nimoʻtkir zaharliligini (kumulyativ xususiyatlarini) oʻrganish R.K.Limning usuli yordamida amalga oshirilgan. Tajribalar ogʻirligi 18-22 g boʻlgan 20 ta oq sichqonlarda (har ikkala jinsda) oʻrganildi.

«Netinfla» yalligʻlanishga qarshi farmakologik vositasining mahalliy-qitirluvchi taʼsirini oʻrganish tana vazni 2-2,5 kg ogʻirlikda boʻlgan, har bir guruhda 6-ta hayvondan, jami 2 guruhdan iborat boʻlgan albinos-quyonlarida (har ikkala jinsda) «Konyunktival testi» usuli bilan amalga oshirilgan.

«Netinfla» farmakologik vositasining yalligʻlanishga qarshi faolligini oʻrganish eksperimental hayvonlarda «Panjaning formalinli shishishi» va «Panjaning gistaminli shishishi» usullari bilan amalga oshirilgan. Tadqiqotlar tana vazni 180-200 g oʻgʻirlikda boʻlgan 42-ta oq zotsiz kalamushlarda (har ikkala jinsda) oʻtkazilgan, tadqiqot hayvonlari har biri 6-ta hayvondan iborat boʻlgan guruhlariga boʻlingan (har bir tadqiqot usuli uchun).

Taqqoslash uchun qiyosiy preparati sifatida nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori vositasi - «Diklofenak» 50 mg, tabletkalaridan foydalanilgan.

Buning uchun hayvonlarga yalligʻlanishni keltirib chiqarishdan bir soat oldin,

ishlab chiqilgan sxema bo'yicha preparatlar bir marta yuborildi. Bundan tashqari, har bir guruhning hayvonlariga 2% 0,1 ml formalin eritmasi 0,1% 0,2 ml gistamin eritmasi (tadqiqot usuliga muvofiq) kalamushning chap orqa panjasiga suvli eritma ko'rinishida yuborildi. Panjasining shishishi darajari 2 soat va 4 soatdan keyin onkometrik tarzda o'lchandi va yallig'lanishga qarshi faollik uchun maksimal yallig'lanish reaksiyasiga erishilganda ma'lumotlar olinadi. Farmakologik faollikni baholash mezoni nazoratga nisbatan eksperimental hayvonlarda panja shishishining kamayishi edi.

Farmakologik vositaning antiproliferativ faolligi «Paxta granulyomasi» usuli yordamida o'rganildi. Tajribalar, tana vazni 18-22 g og'irlikda bo'lgan 42-ta oq sichqonlarda (xar ikkala jinsda) o'tkazildi, tadqiqot hayvonlari har biri 6-ta hayvondan iborat bo'lgan guruhlariga bo'lingan. Taqqoslash uchun dori vositasi sifatida nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositasi - «Diklofenak» 50 mg, tabletkalaridan foydalanilgan.

Buning uchun efir narkozi ostida bo'lgan barcha guruh hayvonlariga (efir narkozi ingalatsion yuborilgan) teri ostiga, og'irligi 50 mg bo'lgan paxta tamponi, bel qismidagi teri ostiga implantatsiya qilingan. Bundan tashqari, eksperimental guruhlarining hayvonlariga ishlab chiqilgan sxema bo'yicha bir kun mobaynida bir marotaba 7 kun davomida tadqiqot vositasi yuborilgan.

So'ngra, farmakologik vositaning yuborilgan so'ngi kunning ertasi kuni hayvonlar o'ldirildi va atrofida hosil bo'lgan granulyatsiya to'qimasi bo'lgan paxta tamponi olindi va paxta tamponining og'irligi o'lchanildi, so'ngra paxta tamponi termostatda 60 °C haroratda doimiy og'irlikgacha quritildi.

Tamponning og'irligi analitik tarozida 0,0001 aniqlik bilan o'lchanildi. Proliferativ reaksiya nam va quritilgan granulyomalar og'irligidagi farq bilan baholandi. «Netinfla» farmakologik vositasining farmakologik faolligini baholash mezoni sifatida paxta granulyomasi og'irligining nazoratga nisbatan kamayishi olingan.

Preparatning isitma tushiruvchi faolligini o'rganish pirogen (xamirturush) yuborilgandan keyin kelib chiqqan hayvonlarda gipertermik reaksiya usuli bo'yicha umumiy qabul qilingan usulda o'rganildi. Tajribalar, tana vazni 18-22 g og'irlikda bo'lgan, har biri 6 hayvondan iborat bo'lgan guruhlariga bo'lingan, 42-ta oq sichqonlarda (har ikkala jinsda) o'tkazilgan.

Pirogen sifatida fiziologik eritmada 20% xamirturushi, 2000 mg/kg dozada, 0,2 ml/20 g hajmda ishlatilgan.

Qiyosiy preparat sifatida «Analgetik-antipiretik» farmakoterapevtik guruhiga mansub bo'lgan, dorivor o'simliklardan tarkib topkan «Biomol» nomli kapsulalar ishlatilgan. Buning uchun dastlabki harorat barcha guruh hayvonlarida qayd etilgan va shundan so'ng pirogen teri ostiga bo'yni burmasiga yuborilgan. Bundan tashqari, pirogen yuborilgandan so'ng, hayvonlarning tana harorati har soat (4 soat davomida) qayd etilgan va sezilarli termik reaksiyasiga erishilgandan so'ng, hayvonlarga bir marotaba ishlab chiqilgan sxema bo'yicha farmakologik vosita yuborilgan. Tana harorati elektron termometr bilan og'iz orqali (0,10 °C aniqlik bilan) qayd etilgan. «Netinfla» farmakologik vositasining faolligini baholash

mezoni sifatida tatqiqot guruh hayvonlarning tana harorati, nazorat guruhi hayvonlarning tana harorati bilan solishtirganda pasayishi olingan.

Preparatlarning analgetik faolligi «Quyruq termal immersiyasi» usuli yordamida o'rganildi. Tajribalar, tana vazni 18-22 g og'irlikda bo'lgan, har biri 6 hayvondan iborat bo'lgan guruhlariga bo'lingan, 42-ta oq sichqonlarda (har ikkala jinsda) o'tkazilgan. Taqqoslash uchun dori vositasi sifatida «Analgetik-antipiretik» farmakoterapevtik guruhiga mansub bo'lgan, dorivor o'simliklardan tarkib topkan «Biomol» nomli kapsulalar ishlatilgan. Buning uchun tajribadan bir soat oldin eksperimental guruhlarining hayvonlariga ishlab chiqilgan sxema bo'yicha bir marotaba «Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasi yuborilgan. Shundan so'ng, hayvonlarning dumlari 55 °C haroratdagi issiq suvga botirildi va dumini tortish vaqti qayd etildi. Farmakologik faollikni baholash mezoni sifatida tatqiqot guruh hayvonlarning nazorat guruh hayvonlari bilan taqqoslaganda reaksiya vaqtining uzayishi hisoblangan.

«Netinfla» yallig'lanishga qarshi vositaning zararsizligini o'rganish» dissertatsiyaning uchinchi bobida sinovdagi yallig'lanishga qarshi farmakologik vositaning bezararligini o'rganish natijalari, o'tkir, nimo'tkir zaharligini o'rganish, allergen va mahalliy-qitqluvchi xususiyatlarini o'rganish natijalarini aks ettiradi.

O'tkir zaharlik tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajribaning butun davrida intakt guruhga nisbatan tajriba hayvonlarning tana vaznining oshishida statistik jihatdan ishonchli o'zgarishlar qayd etilmagan (1-3 jadvallar).

1-jadval

«Netinfla» farmakologik vositasi qo'llanilganidan so'ng tana vaznining o'zgarishi natijalari (gram), ($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)

Guruh	Dastlabki vazn	Preparat qo'llanilganidan 7 kun o'tgach	Preparat qo'llanilganidan 14 kun o'tgach
Intakt	19,34 (18,34÷20,43)	21,83 (21,14÷22,52)	25,33 (24,44÷26,51)
2000 mg/kg dozada	19,45 (18,24÷20,56)	21,93 (21,04÷22,73)	25,80 (24,46÷27,49)
3000 mg/kg dozada	19,57 (18,16÷20,90)	21,63 (21,25÷22,75)	25,61 (24,50÷26,52)
4000 mg/kg dozada	19,37 (18,34÷20,31)	21,33 (21,04÷22,32)	25,63 (24,64÷26,71)
5000 mg/kg dozada	19,73 (18,84÷20,61)	21,45 (21,05÷22,66)	25,85 (24,04÷27,01)
6000 mg/kg dozada	19,83 (18,19÷20,51)	21,90 (21,14÷22,60)	25,75 (24,74÷26,63)

«Netinfla» farmakologik vositasi yuborilgandan so‘ng o‘lgan hayvonlarning mavjud emasligi sababli LD₅₀ ni hisoblash imkonsiz bo‘lib chiqdi, bu 2000-6000 mg/kg doza diapazonida zaharligi yo‘qligini ko‘rsatadi, shuning uchun LD₅₀>6000 mg/kg dep tahmin qilinadi (2-jadval).

2-jadval

O‘tkir zaharlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish natijalari

Dozalar	O‘lgan hayvonlar soni / jami
2000 mg/kg	0/6
3000 mg/kg	0/6
4000 mg/kg	0/6
5000 mg/kg	0/6
6000 mg/kg	0/6
LD ₅₀ >6000 mg/kg	

Tadqitot natijalariga asoslanib, «Netinfla» farmakologik vositasi deyarli bezarar degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki yuqori dozalarni peroral yuborish bilan tana vaznining oshishi, shuningdek hayvonlarning o‘limi kuzatilmagan. Intoksikasiyaning klinik ko‘rinishi bo‘lsa, umuman olganda, «Netinfla» farmakologik vositasi yaxshi o‘zlashtirilgan degan xulosaga kelish mumkin.

O‘rtacha o‘limga olib keladigan dozaning ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan natijalar asoslanib, A.V. Stefanov (klassifikator toksiklik tasnifining oltita darajasini o‘z ichiga oladi) tomonidan tahrirlangan dori vositalarini klinik oldi tadqiq qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmada ta‘riflangan klassifikator bo‘yicha toksiklik sinfini aniqlangan. Ushbu tasniflagichga ko‘ra, preparat peroral yuborilganda toksiklikning beshinchi sinfiga mansubligi aniqlangan (deyarli toksik emas).

Nimo‘tkir tajribadagi intoksikasiyaning klinik ko‘rinishi shuni ko‘rsatadiki, preparatni qo‘llashdan keyin 1-28-kunlarda umumiy holat va hatti-harakatlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmagan va tajribaning butun davrida hayvonlarning o‘limi kuzatilmagan.

Tirik qolgan hayvonlarning ichki organlarini makroskopik baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, yorib ko‘rilgan paytida ichki a‘zolarida sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmagan.

Farmakologik vositani qo‘llashdan keyin tana vazni oshishidagi o‘zgarishlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki (4-jadval), tajribaning butun davrida tana vaznining oshishida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmagan.

O'tkir zaharlik ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari

Doza	Natijalar
Intakt	Hayvonlarda tajriba davomida hech qanday o'zgarishlar kuzatilmagan.
2000 mg/kg	Farmakologik vosita yuborilgandan 10 daqiqa o'tgach, hayvonlarning harakat faolligi pasaygan. 20 daqiqadan so'ng, guruhda tarqalish kuzatilgan, 30 daqiqadan keyin esa uyquchanlik paydo bo'lgan. Hayvonlar burchaklarga joylashgan. 1 soat o'tgach, uyquchanlik 2-3 soat davomida saqlangan. Keyin hayvonlarning holati normallashtgan, hayvonlarning o'limi kuzatilmagan.
3000 mg/kg	Farmakologik vosita yuborilgandan 10 daqiqa o'tgach, hayvonlarning harakat faolligi pasaygan, 2 tasida 20 daqiqa davomida hiqichoq kuzatilgan. 30 daqiqadan so'ng, hayvonlar qafas burchaklariga joylashgan. 1 soat o'tgach, 2-3 soat davom etgan uyquchanlik kuzatilgan. Keyin holat normallashtgan, hayvonlarning o'limi kuzatilmagan.
4000 mg/kg	Farmakologik vosita yuborilgandan 10 daqiqa o'tgach, hayvonlarda harakat faolligining sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan, ular burchaklarga, juft-juft bo'lib joylashgan. Ba'zi hayvonlarda bir kun davomida hiqichoq kuzatilgan. 40 daqiqadan so'ng uyquchanlik paydo bo'lib, 2-3 soat davom etgan. Holat 2 kundan so'ng normallashtgan, hayvonlarning o'limi kuzatilmagan.
5000 mg/kg	Farmakologik vosita yuborilgandan 10 daqiqa o'tgach, hayvonlarda harakat faolligining sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan, ular devor bo'ylab chiziqli bo'lib joylashgan. Bir hayvonda hiqichoq kuzatilgan. 40 daqiqadan so'ng uyquchanlik paydo bo'lib, holat 3 kundan so'ng normallashtgan. Hayvonlarning o'limi kuzatilmagan.
6000 mg/kg	Farmakologik vosita yuborilgandan 10 daqiqa o'tgach, barcha hayvonlarda harakat faolligining sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan. Hayvonlar yolg'iz, ajratilgan holda joylashgan. Besh hayvonda 24 soat davomida hiqichoq kuzatilgan. Farmakologik vosita yuborilgandan 40 daqiqa o'tgach, hayvonlarda 2-3 soat davomida uyquchanlik kuzatilgan. Preparat yuborilgandan 5 kun o'tgach, hayvonlarning holati normallashtgan, va tajriba davomida hayvonlarning o'limi kuzatilmagan.

O'lim bo'yicha olingan ma'lumotlarga asoslanib, kumulyatsiya koeffitsienti (K) hisoblab chiqilgan (5-jadval) va kumulyatsiya koeffitsienti $K = 12,78$ ni tashkil etgan.

Nazorat va tajriba guruhlarining hayvon a'zolarining morfologik tekshirish natijalari rasmlarda keltirilgan (1 va 2 rasmlar).

4-jadval

Tana vaznining o'zgarishlarni natijalari ($M \pm tm$; $p=0,05$; $n=10$)















Kunlar	Tana vazni (gramm)	
	Intakt	«Netinfla» qurq ekstrakti
Datlabki	19,33 (18,24÷20,41)	19,33 (18,47÷20,19)
5-8 sutka	21,83 (21,04÷22,62)	21,33 (20,47÷22,19)
9-12 sutka	23,50 (22,39÷24,60)	23,33 (22,24÷24,41)
13-16 sutka	25,33 (24,24÷26,41)	25,00 (24,06÷25,93)
17-20 sutka	27,16 (25,93÷28,39)	27,00 (26,06÷27,93)
21-24 sutka	29,83 (27,60÷30,06)	28,50 (27,39÷29,60)
25-28 sutka	31,16 (29,62÷32,71)	30,16 (28,92÷31,39)

5-jadval












Kumulyatsiya koeffisienti (K) natijalari

LD ₅₀	nLD ₅₀	K
>6000 mg/kg	76680 mg/kg	12,78

Olingan natijalar «Netinfla» farmakologik vositasining kumulyativ xususiyatlariga ega emasligidan dalolat beradi ($K > 12,78$).

1-nazorat	2-nazorat	3-nazorat	4-nazorat	5-nazorat
				
Jigar to'qimasi				
				
Buyrak to'qimasi				
				
Me'da to'qimasi				

1-rasm. Nazorat guruhlarining hayvon a'zolarining morfologik tadqiqot natijalari

1-tajriba	2-tajriba	3-tajriba	4-tajriba	5-tajriba
				
Jigar to'qimasi				
				
Buyrak to'qimasi				
				
Me'da to'qimasi				

2 rasm. Tajriba guruhlarining hayvon a'zolarining morfologik tadqiqot natijalari².

Tahlil qilingan morfologik tadqiqot natijalari «Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasi organizmga ta'sirini kumulyativ xususiyatlarisiz ko'rsatmoqda. Aytib o'tilgan o'zgarishlar ba'zi hollarda nazorat guruhi bilan taqqoslaganda sezilarli farq aniqlanmagan. Yuzaki o'zgarishlar, dorivor o'simliklardan tarkib topgan yallig'lanishga qarshi farmakologik vositaning ta'sirini og'irillashtirmaydi, boshqa kimyoviy preparatlar bilan taqqoslaganda ham. Mikroskopiya bo'yicha olingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi farq sezilarli emas degan xulosaga kelish mumkin.

«Netinfla» yallig'lanishga qarshi vositasining spetsifik faolligini o'rganish»³ dissertatsiyasining to'rtinchi bobi «Netinfla» yallig'lanishga qarshi vositasining spetsifik faolligini aniqlash natijalariga bag'ishlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, (6 va 7-jadvallar) flogogenlar tomonidan yallig'lanishni keltirib chiqargandan so'ng, hayvonlarning panjasi shishishi 2 va 4 soat mobaynida kuzatildi, biroq tekshiruv farmakologik vositasi qo'llanilishi

² Gistologik tadqiqotlar «Toshkent davlat stomatologiya instituti» klinikasi negizida o'tkazildi (patomorfologik qism bo'yicha maslahatchi – Reynazarova Gulsara Jamalovna t.f.n.), mualliflar ko'rsatilgan yordam uchun minnatdorchilik bildiradilar.

³ «Netinfla» yallig'lanishga qarshi farmakologik vositasining dorivor o'simliklar tarkibi Toshkent farmatsevtika institutining farmakognoziya kafedrasidan taklif etilgan (dorivor o'simliklar tarkibi bo'yicha maslahatchi professor Farmonova Nodira Tahirovna, farm.f.d.) mualliflar ko'rsatgan yordam uchun minnatdorchilik bildiradilar.

natijasida 2 va 4 soatlik kuzatuvidan so‘ng panja shishining sezilarli statistik pasayishi aniqlangan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, «Netinfla» farmakologik vositasi yuqori va ishonchli yallig‘lanishga qarshi faollikka ega va uning samaradorligi nosteroid yallig‘lanishga qarshi sintetik preparat – «Diklofenak»dan kam emasligini isbotlaydi. Aytish kerakki, katta afzallik shundaki, tadqiqot farmakologik vositasi fitopreparat bo‘lib, sintetik yallig‘lanishga qarshi vositalardan sezilarli darajada kam emas, shu bilan birga u yuqori bezararlikka ega, bu o‘tkir, nimo‘tkir zaharliligi, mahalliy-qitiquvchi va allergik ta’sirlarini o‘rganish natijalari bilan isbotlangan⁴.

6-jadval

**Yallig‘lanishga qarshi faollikni o‘rganish natijalari
(formalinli shishi modeli asosida) ($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)**

Guruh	Panja shishining hajmi (ml) orqali			
	2 s.	% samarasi	4 s.	% samarasi
Nazorat	1,000 (0,688÷1,311)	-	1,083 (0,814÷1,352)	-
«Netinfla» 500 mg/kg dozada	0,516 (0,437÷0,595)	48,4%	0,366 (0,281÷0,452)	66,2%
«Netinfla» 1000 mg/kg dozada	0,583 (0,428÷0,737)	42,7%	0,416 (0,313÷0,519)	61,5%
«Netinfla» 1500 mg/kg dozada	0,450 (0,253÷0,646)	55,0%	0,366 (0,258÷0,475)	66,2%
«Diklofenak» 30 mg/kg dozada	0,616 (0,347÷0,885)	38,4%	0,366 (0,239÷0,493)	66,2%
«Diklofenak» 50 mg/kg dozada	0,516 (0,413÷0,619)	48,4%	0,400 (0,306÷0,493)	63,0%
«Diklofenak» 80 mg/kg dozada	0,433 (0,237÷0,628)	56,7%	0,316 (0,194÷0,439)	70,8%

⁴ Dissertatsiya ishining tadqiqot qismi «Med Standard» MCHJ ilmiy-tadqiqot markazi va Dori vositalarini standartlashtirish ilmiy markazi bazalarida bajarilgan (asosiy tadqiqotlar qismi bo‘yicha maslahatchi – Imamaliyev Baxtiyor Alisherovich, PhD.farm.f., skrining tadqiqotlari bo‘yicha maslahatchi Mavlyanov Shuhrat Ravshanovich PhD.t.f. mualliflar ko‘rsatgan yordam uchun minnatdorchilik bildiradilar.

Yallig‘lanishga qarshi faollikni o‘rganish natijalari
(gistaminli shishi modeli asosida) ($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)

Guruh	Panja shishining hajmi (ml) orqali			
	2 s.	% samarasi	4 s.	% samarasi
Nazorat	0,933 (0,824÷1,041)	-	1,000 (1,033÷1,166)	-
«Netinfla» 500 mg/kg dozada	0,616 (0,513÷0,719)	33,9%	0,533 (0,406÷0,660)	46,7%
«Netinfla» 1000 mg/kg dozada	0,500 (0,433÷0,566)	46,4%	0,283 (0,180÷0,386)	71,7%
«Netinfla» 1500 mg/kg dozada	0,516 (0,377÷0,656)	44,6%	0,366 (0,195÷0,538)	63,4%
«Diklofenak» 30 mg/kg dozada	0,500 (0,406÷0,593)	46,4%	0,316 (0,148÷0,484)	68,4%
«Diklofenak» 50 mg/kg dozada	0,433 (0,379÷0,487)	53,5%	0,200 (0,106÷0,293)	80,0%
«Diklofenak» 80 mg/kg dozada	0,416 (0,337÷0,495)	55,4%	0,166 (0,081÷0,252)	83,4%

Antiproliferativ faollikni o‘rganish natijalariga ko‘ra (8-jadval) proliferativ yallig‘lanishni modellashtirishdan so‘ng proliferativ yallig‘lanish mavjudligini tavsiflovchi granulyar to‘qima hosil bo‘lishi aniqlangan, biroq sinovdagi farmakologik vositasi 500 mg/kg (25,3%), 1000 mg/kg (39,8%) va 1500 mg/kg (32,5%) dozalarda qo‘llanilishi natijasida granulyar to‘qima miqdori statistik jihatdan sezilarli darajada kamaygani aniqlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, sinovdagi farmakologik vositasining eng yuqori ta’siri 1000 mg/kg dozada kuzatiladi.

Antiproliferativ faollikni o‘rganish natijalari
($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)

Guruh	Natija	% samarasi
Nazorat	0,083 (0,076÷0,089)	-
«Netinfla» 500 mg/kg dozada	0,062 (0,055÷0,068)	25,3%
«Netinfla» 1000 mg/kg dozada	0,050 (0,041÷0,058)	39,8%
«Netinfla» 1500 mg/kg dozada	0,056 (0,049÷0,063)	32,5%
«Diklofenak» 30 mg/kg dozada	0,058 (0,050÷0,065)	30,1%
«Diklofenak» 50 mg/kg dozada	0,056 (0,049÷0,064)	32,5%
«Diklofenak» 80 mg/kg dozada	0,046 (0,043÷0,049)	44,6%

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sinovdagi «Netinfla» farmakologik vositasi etalon preparati bilan taqqoslanadigan ishonchli yallig'lanishga qarshi (antiproliferativ) faollikka ega.

Isitma tushiruvchi faollikni o'rganish natijalariga ko'ra (9-jadval) sinovdagi «Netinfla» farmakologik vositasi 500 mg/kg dozada nazorat guruhiga nisbatan tajribaning 4-soatida statistik jihatdan ishonchli isitma tushiruvchi ta'siriga ega ekanligi aniqlangan. 1000 mg/kg dozada sinovdagi «Netinfla» farmakologik vositasi nazorat guruhiga nisbatan tajribaning 3 va 4-soatlarida statistik jihatdan ishonchli isitma tushiruvchi ta'siriga ega ekanligi aniqlangan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, «Netinfla» farmakologik vositasi etalon dori vositasi bilan taqqoslanadigan ishonchli isitma tushiruvchi faollikka ega.

Analgetik faollikni o'rganish natijalariga ko'ra (10-jadval) sichqonlarning dumini issiq suvga botirish vaqtida hayvonlarning qisqa vaqt davomida dumini tortib olish kuzatilgan, biroq, sinov vositasini qollanilishi natijasida hayvonlarda dumini tortib olish vaqtining uzayilishi kuzatilgan.

9-jadval

«Netinfla»yallig'lanishga qarshi preparatining isitma tushiruvchi faolligini o'rganish natijalari ($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)

Guruh	Tana harorati $t^{\circ}C$				
	Tajribadan oldin	Pirogen yuborilgandan so'ng	Preparat yuborilgandan so'ng		
		1 s.	2 s.	3 s.	4 s.
Nazorat	36,06 (35,83÷ 36,33)	37,10 (36,43÷ 37,76)	37,35 (36,65÷ 38,04)	37,26 (36,61÷ 37,91)	37,16 (36,44÷ 37,88)
Netinfla 500 mg/kg dozada	36,05 (35,83÷ 36,26)	36,88 (36,51÷ 37,25)	36,85 (36,25÷ 37,44)	36,33 (36,04÷ 36,62)	35,85 (35,45÷ 36,24)
Netinfla 1000 mg/kg dozada	35,68 (34,96÷ 36,40)	37,20 (36,97÷ 37,43)	36,45 (36,16÷ 36,73)	36,10 (35,64÷ 36,55)	35,63 (35,10÷ 36,15)
Netinfla 1500 mg/kg dozada	35,66 (35,31÷ 36,01)	37,41 (36,98÷ 37,84)	36,78 (36,44÷ 37,11)	35,90 (35,54÷ 36,25)	35,48 (35,05÷ 35,91)
Biomol 500 mg/kg dozada	36,08 (35,82÷ 36,34)	36,98 (36,42÷ 37,54)	36,70 (36,24÷ 37,15)	36,46 (36,15÷ 36,77)	35,93 (35,76÷ 36,10)
Biomol 1000 mg/kg dozada	35,88 (35,46÷ 36,30)	37,36 (37,04÷ 37,68)	36,91 (36,52÷ 37,31)	36,15 (35,78÷ 36,51)	35,71 (35,23÷ 36,19)
Biomol 1500 mg/kg dozada	35,83 (35,31÷ 36,35)	37,20 (36,49÷ 37,90)	36,66 (36,05÷ 37,28)	36,06 (35,47÷ 36,66)	35,08 (34,14÷ 36,02)

«Netinfla» yallig‘lanishga qarshi preparatining analgetik faolligini o‘rganish natijalari ($M \pm tm$; $n=6$; $p=0,05$)

Guruh	Natija (sekun)	% samarasi
Nazorat	8,666 (6,039÷11,294)	-
«Netinfla» 500 mg/kg dozada	28,166 (25,560÷30,773)	225,1%
«Netinfla» 1000 mg/kg dozada	25,000 (20,647÷29,353)	188,7%
«Netinfla» 1500 mg/kg dozada	23,500 (20,476÷26,523)	171,1%
«Biomol» 500 mg/kg dozada	18,833 (17,288÷20,378)	117,4%
«Biomol» 1000 mg/kg dozada	28,500 (24,759÷32,240)	229,1%
«Biomol» 1500 mg/kg dozada	28,833 (26,907÷30,759)	232,9%

Sinov preparatining 500 mg/kg (225,1%), 1000 mg/kg (188,7%) va 1500 mg/kg (171,1%) dozalarida olingan natijalari ishonchli analgetik ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, «Netinfla» preparatining eng yuqori analjezik ta'siri 500 mg/kg dozada kuzatiladi. Qiyosiy preparati «Biomol» 500 mg/kg (117,4%), 1000 mg/kg (229,1%) va 1500 mg/kg (232,9%) dozalarida ishonchli analgetik ta'siri kuzatildi. Bundan tashqari, «Biomol» preparatining eng yuqori analjezik ta'siri 1500 mg/kg dozada kuzatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, «Netinfla» va «Biomol»ning ta'siri o'rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega emas, bu ularning analjezik xususiyatlarini eng samarali dozalarda taqoslash mumkinligi orqali tasdiqlanadi. Shunday qilib, tajriba natijalari o'rganilayotgan preparat «Netinfla»ning ishonchli analgetik faolligiga ega ekanligini tasdiqlaydi, va bu ta'sir etalon preparatining ta'siri bilan taqqoslanadi. Shuningdek, olingan ma'lumotlarga asoslanib, maksimal og'riq qoldiruvchi ta'sirga erishish uchun «Netinfla» preparatining eng samarali doza sifatida 500 mg/kg dozasini tavsiya qilish mumkin.

Olingan natijalar «Netinfla» ni analgetik vosita sifatida klinik amaliyotda keyingi tadqiq qilish va qo'llash istiqbollarini ochadi.

XULOSALAR

1. Yallig‘lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasining klinik oldi tadqiqotlari natijalariga asosan ushbu vosita zaharliligi bo'yicha beshinchi sinf (amalda zaharli bo'lmagan) moddalar guruhiga kirishi isbotlangan. «Netinfla»ning nimo'tkir zaharliligini aniqlashda uning kumulyatsiya koefitsienti 12,78 ga tengligi aniqlanib, ushbu farmakologik vosita kumulyativ xususiyatga ega emasligi isbotlandi.

2. Yallig‘lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasi mahalliy-qitiqluvchi xususiyatga ega emasligi «Konyunktival testi» modeli yordamida isbotlangan va ushbu vosita darhol va kechiktirilgan turdagi allergik reaksiyalarni chaqirmasligi tajribalar natijalari bo'yicha aniqlandi.

3. Formalin va gistamin modellarida «Netinfla»ning yallig'lanishga qarshi faolligi yallig'lanish bosqichida yaqqol antiekssudativ ta'sir ko'rsatishi bilan namoyon bo'ldi. Bunda «Formalin shishi» modelida o'rganilayotgan farmakologik vositaning samaradorligi 1500 mg/kg dozada nazorat guruhiga nisbatan 66,2%, «Gistamin shishi» modelida esa - 1,000 mg/kg dozada 71,7% yuqoriligi isbotlandi.

4. Yallig'lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasi antiproliferativ faollikka ega ekanligi «Paxta granulomasi» modelida aniqlandi. Ushbu vosita 1000 mg/ kg dozada nam va quruq granulomalar massasining sezilarli darajada kamayishiga olib kelib, samaradorligi nazorat guruhiga nisbatan 39% dan ortiqqligi isbotlandi.

5. Yallig'lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasi peroral qo'llanilganda nazorat guruhidagi tajriba hayvonlariga nisbatan isitmani 1,9°C tushurishi hamda analgetik ta'sirini samarasi 225% dan ortiqqligi aniqlandi.

6. Yallig'lanishga qarshi «Netinfla» farmakologik vositasi sintetik nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalaridan spetsifik faolligi kam emasligi, shu bilan birga morfologik tadqiqotlar natijasida uning ultserogen ta'siri yo'qligi isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.04/30.12.2019.FAR.32.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ПЕДИАТРИЧЕСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ

САБИРОВ ДИЛШОД ШУХРАТ УГЛИ

**ИЗУЧЕНИЕ ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ
ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНОГО СРЕДСТВА «НЕТИНФЛА»**

14.00.17- фармакология и клиническая фармакология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по фармацевтическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и технологий Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Far109.

Диссертация выполнена в Ташкентском педиатрическом медицинском институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.pharmi.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Даминова Лола Тургунпулатовна доктор медицинских наук, профессор
Официальные оппоненты:	Аллаева Мунира Журакуловна доктор медицинских наук, профессор Исламова Жаннат Икромовна доктор медицинских наук, ведущий научный сотрудник
Ведущая организация:	Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в _____ часов на заседании научного совета DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (Адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38, факс: (+99871) 256-45-04, e-mail: info@pharmi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер___) по адресу: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (+99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(Реестр протокола рассылки №___ от «___» _____ 2025 года).

К.С.Ризаев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.м.н..

Ё.С.Кариева
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.фарм.н., профессор.

Р.Т.Туляганов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Согласно данным Всемирной организации здравоохранения, различными типами воспалительных заболеваний страдают более 1,71 млрд людей в мире, и сегодня нестероидные противовоспалительные препараты (НПВП) широко применяют свыше 300 млн человек в год, для лечения воспалительных заболеваний. Однако препараты данной фармакотерапевтической группы в связи с их синтетической природой, а также со способностью проникать через гистогематические барьеры проявляют ряд побочных эффектов, включая гастро-, нефро-, кардио -, гемато-и гепатотоксичность. Поэтому разработка высокоэффективных противовоспалительных препаратов на основе лекарственных растений, оказывающих шадящее воздействие на организм человека, изучение фармакологических свойств, определение терапевтических доз, а также доказательство безвредности приобретает важное значение.

В настоящее время в мире ведутся научные исследования по изучению лекарственных растений, выделению из них биологически активных веществ, их анализу, а также доказательству их фармакотерапевтической активности. В этой области особое внимание уделяется разработке сборов лекарственных растений на основе результатов фармакологического скрининга, доказательству эффективности полученных экстрактов, определению их специфической активности и безвредности, а также их применению в официальной медицине.

